

FOLKLORDA BOLALAR QO'SHIQLARINING
O'ZIGA XOS JIHATLARI

Davlatova Shoira To'liboyevna
shoiratulibayevna@gmail.com
Buxoro innovatsion ta'lif va tibbiyot universiteti
O'zbek tili va adabiyoti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalqining bolalar folklor san'ati, folklor-etnografik jamoalar va ularning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritilgan. Bolalar folklor tarixi hamda bolalar folklorda ta'lif va tarbiya jarayoni keng yoritilgan. Folklor qo'shiq ijrochiligidan namunalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Folklor, nomoddiy madaniy meros, arxeologiya, ashula, cholg'u, xalq qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodi.

CHILDREN'S SONGS IN FOLKLORE SPECIFIC ASPECTS

ANNOTATION

This article discusses children's folklore art of the Uzbek people, folklore-ethnographic communities and the history of their development. The history of children's folklore and the process of education and training in children's folklore are widely covered. Examples of folklore song performance are cited.

Key words: Folklore, intangible cultural heritage, archeology, singing, musical instruments, folk songs, folklore

Folklor atamasini 1846- yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, u "xalq donoligi" degan ma'noni anglatadi. Dastlabki vaqtarda "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "xalq og'zaki ijodi" deb yuritilib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi Hodi Zarif ijodidan boshlab, ya'ni 1935- yildan e'tiboran "O'zbek folklori" nomi bilan ishlatiladi. Xususan, folklor namunalari hisoblangan "To'maris", "Shiroq" kabi afsonalar, "Alpomish", "Ravshan", "Kuntug'mish" kabi dostonlar, "Malikai Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqi qadriyatlarining ajralmas qismidir. Folklor barcha san'atning boshlanishi , sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar u bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turuvchi san'at turidir" – deb ta'kidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov. Darhaqiqat, buni tan olmasdan ilojimiz yo'q, chunki xalqimiz madaniyatining eng dastlabki kurtaklari folklor namunalari orqali ko'rindi. Bugungi kunda ma'lumki,

shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta'sir qilmasdan samaraga erishib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Dostonlarimizning bosh qahramonlariga aylangan jasur va mard o'g'lolar va barno va iboli qizlar timsoli hech bir o'quvchini e'tiborsiz qoldirmaydi. Ularning qilgan xatolari orqali yoshlarga to'g'ri yo'lni tanlash kerakligi uqtiriladi. Nafaqat dostonlarimiz tarbiyaviylik ahamiyati jihatdan folklorshunoslikda maqollarning ham ahamiyati salmoqli darajadadir.

Bolalar folklori — og'zaki ijod namunalaridan biri bo'lib, odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy qismlaridan biri. O'zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, rekalam, masharalama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932-yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachoq va erkalamalar onalar mehr-muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atak-chechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toy toy", «Bordi-bordi» va boshqa ovutmachoqlar aytildi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bogliq. «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «Chittigul», «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Qurbaqa», «Qaldirg'och» kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. «Bu bog'chada olcha», «Zuvzuv borag'on», «Chamandagul», «Oq sholi, ko'k sholi» va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar Bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar «Choriy chambar», «Hakkalakam» kabi sanama o'yinidan, katta bolalar «Qushim boshi» degan topishmoqdan boshlaydi.

Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniadi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan.

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonalardanoq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan dunyoga keltirgan. Hali yozuv nimaligini bilmagan vaqtarda ham odamlar o'yin-kulguni, surat chizishni bilganlar. Xalqimiz orasidan buyuk iste'dod sohiblari, baxshilar, naqqoshlar, sangtaroshlar yetishib chiqqan. Ularning asarlarida ko'hna tarix

izlari, xalq termalari, dostonlarida ona allalari va bola o'yinlarida saqlanib qolgan.

Bola dunyoga kelgan kunidan boshlab yoqimli ona allasini eshitadi. Alla bola ongiga ona suti bilan kiradi. Bola ulg'ayib borgan sari qo'shiqlar ohangi ham o'zgarib boradi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, bolaning ma'naviy dunyosini shakllantiradi. Bolalar endi o'z harakatlarida kattalarga taqlid qiladilar.

Bolalarni yoshligidanoq foydali ishlarga o'rgatish mashg'ulotlar, qo'shiqlar, ertaklar orqali amalga oshiriladi. Bola allalagan ona o'ziga xos poeziya yaratadi. U beshik ustida bugun aytgan so'zlarini ertaga takrorlamaydi, nimadir qo'shadi va boyitadi. Shu yo'sinda allalar, ertaklar, qo'shiqlar, termalar, topishmoqlar yig'ilib kata bir dengizni hosil qiladi. Bolalar folklori bola uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir.

Har bir xalq bolalar folklorining vujudga kelishi o'sha millatning ma'naviy tafakkuri bilan bog'liq. Shu tariqa xalqning o'zi farzandlari uchun maxsus adabiyotni vujudga keltirish majburiyatini oladi.

Rus xalqi orasida jodugar kampir Yaga, uchar ilon, To'g'rivoy va Egrivoy to'g'risida ertaklar; turkey xalqlar orasida To'maris, Shiroq, Guldursun haqidagi afsonalar shuhrat qozongan. Holbuki, bu ertaklarning yaratilishi eramizdan avvalgi 6-4-asrlarga borib taqaladi.

Shuningdek, turkiy xalqlar orasida hind va arab folklori namunalari ham keng yoyildi. Masalan: "Panchatantra", "Kalila va Dimna", "Ramayana", "Mahobxorat", "Ming bir kecha" shular jumlasidandir. Bu holat yangi eraning boshlanishiga to'g'ri keladi.

Eng qadimgi janrlardan biri bu – qo'shiq janridir. Qo'shiqlarning ham eng qadimiysi beshik qo'shiqlari hisoblanadi. Bola tug'ulib tili chiqqunga qadar kattalar ularga Alla aytib beradilar, tarbiyachilar turli mashg'ulotlar o'tkazadilar, turmushga zarur bo'lgan dastlabki hayotiy qoidalarni o'rganadilar. "Beshik qo'shiqlari" hamma xalqlarga mansub. Xusan, ming yillar ilgari ham "Beshik qo'shiqlari" bo'lgan. M.Qoshg'ariy, Ibn Sino asarlari orqali juda ko'p qo'shiqlar yetib kelgan. Ibn Sino allani bola tarbiyasi haqidagi rolini quyidagicha ifodalaydi: "Bolani mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolaning beshigini ekin tebratmoq, ikkinchisi bolani uxlatish uchun alla aytishdir. Bu bilan bolaning tanasi va ruhi orom oladi. Hatto, ona bu holatda g'azab, g'amginlik, cho'kishdan xoli bo'lishi kerak" – deydi.

O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishida xalq og'zaki ijidoning o'rni alohida ahamiyat kasb etishini folklor namunalarini o'rganish davomida tanishib chiqamiz. Bolalar shoiri Anvar Obidjon "Suhbat" nomli she'rida bolalar yaxshi ko'radigan g'ozlar to'g'risida so'z yuritadi. Voqeа juda oddiy va soda. O'zaro suhbatdan ma'lum bo'ladiki, g'ozlarning qorni och, ularni boqish kerak. Buni shoир

o'yin vositasida ifodalaydi:

G'ozlar bir so'z deysizmi?

G'a-g'a, g'a!

Totli suli yeysizmi?

Ha-ha-ha!

Nega patni silaysiz?

G'oq-g'oq, g'oq.

Mendan nima tilaysiz?

Boq-boq, boq.

Bolalar shoiri Yo'ldosh Sulaymonning "Qo'g'irchoq" she'rida qo'g'irchoqlarni asrab-avaylash, oddiy o'yinchoq misolida insonlarning mehnatini qadrlash kabi insoniy fazilatlarni targ'ib qiladi va shoir xalq folklori namunalaridan foydalanib buni chiroli tarzda yetkazib bergen:

Quyosh bilan teng turib,

Ozoda kiyintirib,

Senga taqamiz marjon

Qo'g'irchoqjon qo'g'irchoq.

Xalq o'rtasida suv haqida ko'plab afsonalar, qo'shiqlar yaratilgan. Bolalarning o'yin va ashulalarida ham suv va tabiat hodisalari mavzusi namoyon bo'ladi:

Yomg'ir yog'aloq,

Echki sog'aloq.

Boyning o'g'lining

Qorni dumaloq.

Ushbu qo'shiqning bir necha xil ko'rinishlari bor. Bu hududlar kesimida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Farg'onada "Yomg'ir yog', sochim o's" tarzida kuylashsa, Buxoroda "Yomg'ir-yomg'ir bore-bore, yoqqaniningi ko'ray" deyishsa, Surxondaryoda:

Yomg'ir yog'sin, O'ralar to'lsin.

Sur xotin.

Sur xotinga suv kerak,

Qozon to'la un kerak.

Bunda yomg'ir yog'ishi baraka kelishiga, qozon to'la un bo'lishiga va un o'z navbatida bolalarga non bo'lishiga ishora qiladi.

Bahor kelishi bilan bolalar dalalarga chiqib qo'shiq va o'yinlarni boshlab yuborishadi. Qizaloqlar boshlariga toldan jamalaklar taqishib, o'g'il bolalar tol xivchinidan "Toychoq" yasashib qirlarga chiqishadi. Xalq qo'shiqlarini kuylashadi. "Boychechak" qo'shig'i bularni o'rtasida eng mashhuri:

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la avrondi.
Ayroningdan bermasang,
Qozon tovog'ing vayrondir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechak yoshlik va jo'shqinlik ramzi. Xalqimizda oddiy mehnatkash oilani farzandi kata muvaffaqiyatlarga erishsa, bu odam "qattiq yerdan qatalab chiqqan" degan iborani qo'llashadi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, boychechak – mehnatkash inson ramzi hamdir.

"Chittigul" qo'shig'i ham bolalar qo'shiqlarining ajralmas bo'lagidir. Bu qo'shiq bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatiladi. Qo'shiq matniga mos raqsga ham tushadilar:

Chittigulo chittigul,
Hayyu chittigul.
Chittigulga gul bosay,
Bir yonini yon bosay
Hayyu chittigul,
Hayyu chittigul.

Qo'shiq aytilishi bilan beixtiyor qizchalarni juft-juft bo'lib raqsga tushishi ko'z oldimizda gavdalanadi.

Yana bir sevimli qo'shiqlardan biri "Laylak keldi, yoz bo'lди" qo'shig'idir. Yoz faslida aytildigan bu qo'shiqni bilmaydigan yosh-u qari bo'lmasa kerak:

Laylak keldi yoz bo'lди,
Qanoti qog'oz bo'lди.
Bizni deb uchib keldi,
Uzoqdan ko'chib keldi.
Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa
Halqasi tushib ketdi,
O'tirdi yig'lamoqqa.
Laylak keldi ilon qoch,
Bola chaqang olib qoch.
Yangi to'ning kiyib qoch.
Eski to'ning tashlab qoch.

Ushbu qo'shiq matnidagi voqealar o'zbek xalqining naqadar donoligini, topqirligini yaqqol ko'rsatadi. Sababi yoz fasli laylakni kelishi bilan boshlanadi, deyilgan. "Laylak keldi – ilon qoch" jumlasiga to'xtalsak, avvalo, laylak ilon yeydi, shu uchun ilon qochishi kerak. Ikkinchidan, bolalar yoz faslida cho'milishni xush ko'rishadi, tabiiyki ular ilondan qo'rqishadi. Yana bir sabab yoz faslida ilonlar po'st

tashlab tullaydi.

Bundan tashqari “Oftob qo’shiqlari” turkum qo’shiqlari ham bor. Ushbu qo’shiqda bolalarni mehnatsevarlikka, birdamlikka chaqiriq yangraydi:

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.
Xola-xola kulcha ber!
Xolam dedi: “O’tin ter”.
Keyin yugurdim qirga
O’rtog’im bilan birga.
O’tin terdik bir quchoq
Bilmadik sira charchoq.

Qo’shiq matni yengil, o’ynoqi va esda qoladigan. Shu bilan birga jamoaviy mehnatga o’rgatadi va qilgan mehnati samarasidan bolalar zavqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo’shiqlari musiqiy tarbiya metodikasida qo’shiq aytish faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatini rivojlantiradi. Milliy ruhni o’zida aks ettirgan xalq qo’shiqlari va laparlari bolalarni olamni badiiy his va idrok etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi, insonning his-tuyg’ularini, kechinmalarini o’ziga xos badiiy tilda ifodalaydi. O‘quvchilarni qiziqtiradigan, o’ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan sharoit yaratadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar xalqimizning milliy iftixori hisoblanadi. Asrlar davomida mehnat, kurash va ijod jarayonida ishilarni ezgulikka yetaklovchi ilhom manbai bo‘lib sanaladi. Musiqa tilisiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo’shiq bilan, musiqa bilan tirik. Kuy-qo’shiqlarsiz hayotning mazmunini, atrofdagi go’zallikni tasavvur etish qiyin. Qo’shiq zavq ehtiyoji, eng go’zal, eng olivjanob orzu va hayotiy g’oya hayqirig’idir. Xalq qo’shiqlari umuminsoniy qadriyatlarini o‘quvchilarni dunyoqarashi, musiqiy didini rivojlantiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar o‘quvchilarda milliy kuy-qo’shiqlarga ixlos uyg’otadi, musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg’usini o’stirib, musiqiy o’quvi va didini o’stiradi, talabalarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo’shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi, alla, lapar, terma qo’shiqlar vositasida o‘quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatlari o’sib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO’YXATI:

1. T.Mirzayev X.Razzoqov, O.Sobirov, K.Imamov O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1980-yil
2. G’. Jahongirov. O’zbek bolalar folklori. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1975-yil
3. Masharipova Z. O’zbek xalq og’zaki ijodi. T., 2008. -150 bet
4. O’zbek bolalar antologiyasi. She’riyat. 1-qism. –Sharq. –T.: 2006.

5. O‘zbek bolalar antologiyasi. Nasr. 2-qism. –Sharq. –T.: 2006.
6. M.Allaviya. O’zbek xalq marosim qo’shiqlari. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 132 b.
7. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part IIIISSN 2056-5852.
8. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
9. Nurullayev F.G. Formation of aesthetic education of children on the example of bukhara folklore songs. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
10. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-сон. Buxoro. Б.175-180.
11. Farrux Nurullayev, Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age, центр научных публикаций (buxdu. Uz): Том 4 № 4 (2021)
12. Librariy.adti.uz
13. <https://arxiv.uz/uz/documents>
14. <https://zenodo.org/records/6638058/files/saodat.pdf>